

1. Kredit 30 akademik soatni tashkil qilinishi ko'zda tutildi.
2. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari qo'shimcha fanlar blokining soatlari hisobiga, harbiy yig'in esa ta'vil vaqti hisobiga o'tkaziladi. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari o'tkazilmaydigan hollarda ushbu blokdan mehnat bozori va kadrlar buyurtmachilarining talablariga va harakatchanligini ta'minlovchi fanlar OTM Kengashi qarori bilan belgilanadi.
3. O'quv reja asosida ishchi o'quv rejasini tuzishda talabalar yuklamasining haftalik hajmini saqlagan holda o'quv fanlari bloki hajmini 5 foizgacha, bloklar tarkibidagi fanlar hajmini 10 foizgacha o'zgartirish hamda auditoriya yuklamasining umumiy hajmini saqlagan holda ayrim semestrlarda haftalik yuklamalar hajmini erkin belgilash imkonligi ko'zda tutildi.
4. YAKuniy davlat attestatsiyasi muddatlari tarkibiga bitiruv malakaviy ishini himoya qilish ham kiritilishi inobatga olindi.
5. O'quv reja kiritiladigan ixtisoslikka oid fanlarning amaliy mashg'ulotlari va laboratoriya ishlari oliy ta'lim muassasasi hamda bazaviy tashkilot va korxonalarda o'tkazilishi hisobga olindi.
6. Nazariya va amaliyot yaxlitligini ta'minlash uchun talabalarining malakaviy amaliyotlari bazaviy tashkilot va korxonalarda o'tkazilishi ko'zda tutildi.

O'quv jarayonining tarkibiy qismlari	Haftalar soni	Semestr	Davlat attestatsiyasi
Nazariy va amaliy ta'lim	105	1-7	Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish yoki fanlardan Davlat attestatsiyasi
Malakaviy amaliyot	21	2,4,6,8	
Attestatsiyalar	28	1-7	
YAKuniy davlat attestatsiyalari	3	8	
Ta'tillar	47	1-8	
Jami	204		

Ishchi o'quv reja 2021 yil _____ dagi № _____ sonli baeonomasi bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv reja asosida tuzildi

BuxDU o'quv ishlari bo'yicha prorektor v.b. : **R.G'. Jumaev**

O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i: **R.G'. Jumaev**

Jahon tarixi kafedrasini mudiri : **O.R. Rashidov**

Kadrlar buyurtmachisi:



17 AUG 2021